Mirzo Ho‘qandiy (1880-1943)



Mirzo Ho‘qandiy (1880-1943)

Mirzo Ho‘qandiy (taxallusi; asl ism-sharifi Xayrullaxon Sayd Nosir o‘g‘li Mirzo) (1880, Qo‘qon — 1943, Toshkent) — shoir va ma’rifatparvar. Qo‘qon madrasasida Sulaymonquli Rojiytsyam adabiyot, husnixat, muammodan saboq olgan.

1910 yilda yangi usulda maktab ochib, o‘qituvchilik qilgan. 1912 yildan mazkur maktab qoshida «Ma’rifat» nomli kutubxona va nashriyot tashkil etgan. «Tuhfat ul-atfol» («Bolalar sovg‘asi»), «Turki avvali ilm» («Dars rahbari»), «Rahbari alifbo» kabi darsliklarni tarjima qilib, nashr ettirgan. «Gulshani Mirzo», «Gulshani xayol» nomli darsliklar tuzgan.

Fors tilidan «Mushuk va sichqon» hikoyasini, Abdurahmon Jomiyning «Risolai muammo»sini tarjima qilgan.

1916 yilda Vayner matbaasida «Jumboq majmuasi» nomli topishmoklar to‘plamini nashr ettirgan.

2023-09-08 20:40:52